



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TARIX” KAFEDRASI

REFERAT

MAVZU: Mustaqillik arafasidagi respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy axvolini o'rganishda I.A.Karimovning O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida asarining ahamiyati

2013/2014 O'QUV YILI



Bajardi: III-kurs “301” guruh talabasi Fayziyeva R.

Tekshirdi: dot. S.R.To'rayev.

Toshkent – 2013.

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
§ 1. Asarda mustaqillikka erishish arafasidagi Respublikani ijtimoiy-siyosiy ahvoli talqini..	8
§ 2. Respublikada mustaqilik ostonasidagi iqtisodiy ahvolning asarda yuritilishi.....	13
§ 3. Asarda milliy mustaqillik g'oyalarining ilgari surilishi.	17
§ 4. Asarning mustaqillikka erishish ostonasida Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganishdagi ahamiyati.	22
Xulosa.	26
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.	27
Ilovalar.	28

Mavzu: Mustaqillik arafasidagi Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolini o'rganishda Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarining ahamiyati.

Reja:

Kirish.

§ 1. Asarda mustaqillikka erishish arafasidagi Respublikani ijtimoiy-siyosiy ahvoli talqini.

§ 2. Respublikada mustaqillik ostonasidagi iqtisodiy ahvolning asarda yuritilishi.

§ 3. Asarda milliy mustaqillik g'oyalarining ilgari surilishi.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, tarixni tiklash, qayta yozish, haqqoniy tarixni yaratish uchun juda ko'plab ilmiy va amaliy ishlar olib borilyapti. Prezidentimiz ta'biri bilan ayganda: "Buyuk istaklarimiz madaniyatimizni o'zimiz uchun va butun dunyo uchun qayta tiklamoqdamiz."¹

Ushbu mavzu nihoyatda dolzarb bo'lib, Respublikamizdagi mustaqillikka erishish arafasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni o'rganish, o'sha davrdagi hayotni qandayligi, mustaqillikka qanday erishganmiz, tinchlik yo'li bilan erishganimiz haqida bugungi kunda ham savollar ko'p. Bu savollarga javob topish, biz tarixchilar oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Mavzuni keng tadqiq qilish, o'ranish ushbu mavzuning asosini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi.

Ushbu mavzuning o'rganilish darajasi, bugungi kunda nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanganligi sababli keng o'rganilmoqda. Ushbu mavzu yuzasidan Prezidentimiz Islom Karimovning² asarlarida keng tahlil qilingan. Bundan tashqari N.Jo'rayev, K.Usmon, Q.Rajabov, R. Shamsutdinov va boshqa ko'plab tarixchi olimlarning O'zbekiston tarixiga oid risola va qo'llanmalarida keng o'rganilgan. Bu asar chop qilingandan keyin barcha o'quv dargohlarida keng o'rganila boshlandi.

Akademik litsey, kollej, oiliy o'quv dargohlarida "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" da kitobi yuzasidan qo'shimcha darslar qo'yildi.

Maqsad va vazifalari.

Ushbu mavzu yuzasidan Mustaqillikka erishish arafasidagi qiyinchiliklar, muammolar, mustaqillik qanday ahvolda qo'lga kiritganligi, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'rganish maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- Mustaqillik arafasidagi respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolidan o'rganishda Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarining ahamiyatini ochib berish;
- Asarda mustaqillikka erishish arafasidagi Respublikaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli talqinini o'rganish, tahlil qilish;
- Asarda milliy mustaqillik g'oyalarining ilgari surilishini o'rganish;
- Asarning mustaqillikka erishish ostonasidagi Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan o'rganishdagi ahamiyatini tushuntirish tahlil qilish;
- Mavzu yuzasidan umumiy xulosa berish;

¹ I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
T.SHarq 1998. 87- sahifa.

² I.A. Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T. "O'zbekiston" 2012.

Metadologik asosi:

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tariximizni qayta yozish, haqqoniy tariximizni keng jamoatchilik, o'quvchi va talabalarga yetkazish uchun ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu mavzuning metodologik asosi ilmiy va haqqoniylik xususiyatiga ega bo'lib, Prezidentimiz Islom Karimovning metodologik –konseptual g'oyalari asosida yaratildi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati .

Ushbu mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, mavzu birlamchi manbalar asosida o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Mavzuni o'rganish natijasida tegishli xulosalar chiqarildi.

Mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu mavzudan kasb-hunar kollejlari, litsey talabalari, umuman keng jamoatchilik foydalansa bo'ladi.

§ 1. Asarda mustaqillikka erishish arafasidagi respublikani ijtimoiy –siyosiy aholi talqini.

Har bir davlatning imperiyaning tashkil topish davri va tugallanishi, inqirozga yuz tutish davri bo'ladi. Davlatning inqirozga yuz tutishiga nima sabab bo'ladi? Ijtimoiy-siyosiy tanglik, iqtisodning izdan chiqishiga nimalar sabab bo'ladi degan savollar o'z-o'zidan paydo bo'ladi.

XX asr davomida dunyoning bir qismida demokratik davlatlar tashkil topgan bo'lsa, ikkinchi bir qismida ulkan bir imperiya SSSR imperiyasi tashkil topdi. Mazkur imperiyaning tanazzulga yuz tutishi, mustaqil yosh davlatlarning paydo bo'lishi haqida gapirar ekanmiz, o'z-o'zidan Respublikamizning bu mustaqillikni qanday qo'lga kiritgani, 80-yillirdagi ijtimoiy-siyosiy hayot haqida gapirmasdan ilojimiz yo'q. Xo'sh 80-yillarga kelib, Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday edi?

Sovet mustabid tuzumining hukmronligi 80-yillarga kelib, ijtimoiy sohada boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Bunda ikki xil sabab ko'rishimiz mumkin. "Birinchidan, 70 yildan ortiq vaqt mobaynida sovet jamiyatida amal qilib kelgan Kompartianing yakka boshchilikka asoslangan ma'muriy buyruqbozlik va shovinistik ish yuritish uslubi hayot sinoviga bardosh bera olmadi.

Kommunistik partiya sovetlar jamiyati uchun kurashdi va ommani o'z orqasidan ergashtirdi. 1917-yil Oktabr to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Kompartiya boshqa siyosiy partiyalar faoliyatini cheklab qo'ymadi, har qanday erkin hur fikrlashlarga barham berdi va proletariat diktaturasi tizimida yagona rahbarlikni da'vo qilib chiqdi."³

"Sho'rolar amal qilgan kommunistik firqa ishlab chiqqan va asos slogan "lenincha milliy siyosat" olib bordi va boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Sho'rolar va komfirqaning milliy siyosatdagi maqsadi rus bo'lmagan boshqa millatlarni umuman millat sifatida yo'q qilib yuborish, assimilyatsiyalashdan iborat edi. Shu bois komfirqa o'zining razil maqsadlarini "baynalminal tarbiya "bayrog'i ostida sistemali suratda 70 yildan ortiq vaqt davomida xaspo'shlab olib bordi. Ammo xalqimizning ko'zi sekinlik bo'sada ochilib, bu soxta milliy siyosatning asl mohiyatini tushuna bordi."⁴ Bu davrga kelib, ijtimoiy-siyosiy sohada ro'y berayotgan jarayonlar hammani tashvishga solib qo'ydi. Intizom va tartib buzilib ketdi, jinoyatchilik ko'payib, odamlarning xavfsizligi, huquqlari va qadr –qimmatlari kafolatlari buzilib ketdi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalarining ahvoli yomonlashib bordi, mehnat unumdorligi, milliy daromad pasayib ketdi.

Ehtiyoj buyumlari va kerakli xizmatlar bilan ta'minlangan ish haqining o'sishi pulning qadrsizlanishini keltirib chiqardi. Bular hammasi odamlarning ayniqsa, kam daromadli aholi tabaqalarining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

"Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadagidan ham orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi."⁵

Bunday holatga tushib qolishning sababi nimada edi? Axir respublikamiz tabiiy xomashyoga, boy hudud hisoblanadiku. Nega shuncha imkoniyatlarga ega bo'lib turib, biz bu

3.N.Jo'rayev. SH.Karimov. O'zbekiston tarixi. T.SHarq." 2011. 591 sahifa.

⁴ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. "O'zbekiston tarixidan materiallar" Andijon. 2004. 573-574-sahifalar.

⁵ I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. "O'zbekiston" 2012. 166-sahifa.

ahvolga tushib qoldik? Shuning uchunki, har bir ish Markaz tomonidan rejalashtirilgan va u “chizgan chiziq” dan chiqish qat’iyan taqiqlanardi.

Respublikamiz sanoat ishlab chiqarishi bir tarafdin olib borilar, bu esa ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka intilishiga to’sqinlik qiliardi. “O’zbekiston paxta yetishtirishga mana shunday ixtisoslashtirish oqibatida respublikada go’sh va sut yetishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi, biroq biz shunga muvofiq ravishda o’rinni to’ldiradigan hech narsa olmadik”.⁶ Ayni paytda respublikaning ko’pgina hayoti muhim manfaatlarga ziyon yetdi. “Paxta yakka hokimligi ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzilganligi yerning tinka- madori qurib ketganligi, suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib borgaligi qishloq xo’jaligiga halokatli ta’sir ko’rsatdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo’yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta’minlash muammolari keskinlashdi. Orol dengizining falokati Qoraqalpog’iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo’ldi, endi Orolni qutqarib qolish uchun zudlik bilan favqulotda chora –tadbirlar ko’rilishi kerak”.⁷

Prezidentimiz Islom Karimov BMT bosh assambleyasining 48- sessiyasida nutq so’zlar ekan “Dunyodagi ko’pgina mintaqalar kabi Markaziy Osiyo ham g’oyat katta miqyosdagi ekologik ofatlarga duch kelyapti. Eng avvalo, bu gap Orol dengizi fojiasiga taaluqli .

Keyingi yillarda uning hajmi uch barobardan ko’proq qisqardi, maydoni ikki barobar kamaytirdi, qirg’og’i 80 kilometr ga chekindi, suvning minerallashuvi darajasi to’rt baravarga oshdi, haydaladigan ikki million gektar yerni qum bosdi, chang-to’zonlar 300 kilometr va undan ko’proq masofaga yetib boradigan bo’ldi. Mana shularning hammasi mintaqaviy sanitariya holatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. BMT eksportlarining fikriga ko’ra, Orol muammosi o’zining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari jihatidan XX asrning eng katta ofatlaridan biri bo’lib qoldi.

Orol dengizining halokati butun dunyo uchun oldindan aytib bo’lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Biz jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, Orolni va Orolbo’yini qutqarishda yordam berishga chaqiramiz”⁸ deb ta’kidlab o’tgandilar. 80-yillarning oxirlariga kelib Respublikadagi siyosiy va ma’naviy hayotda inqirozli vaziyat vujudga keldi. Halol mehnat qilmay mo’may daromad topish imkoniyati tug’ilganligi, mehnatkashlarining moddiy holatini sun’iy ravishda tenglashtirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarda boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqargandi. Rahbar partiya xodimlari vakolatlarining cheklanmaganligi har xil suiste’molliklar va poraxo’rlikka olib kelar, ularning ma’naviy qiyofasining buzilishiga sabab bo’lardi. Bulardan tashqari eng asosiy muammo shu bo’ldiki, “milliy, tarixiy, diniy qadriyatlarni mensimaslik o’zlikni yo’qotishga olib keldi. “xalq, Vatan oldidagi burch” kabi muqaddas tushunchalarning qiymati pasaydi. “Sen menga tegma, men senga tegmayman” qabilidagi qoida asta-sekin ijtimoiy ongga egallab oldi”.⁹ Prezidentimiz aytganidek, “inson jamiyatdagi o’rni va qadrini to’g’ri tushunishi zarur. U o’zini kichkina murvat deb his etishi, hamma muammolarni uning o’rniga davlat hal qilishi kerak deb bilishi zararli tushunchadir. Hayotga bunday munosabatda bo’linsa, o’z faoliyatining maqsadga muvofiqligi, o’z mehnati bilan munosib turmush sharoitini yetarli mumkinligi haqidagi tasavvur so’nadi.”¹⁰

⁶ I.A.Karimov. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O’zbekiston” 2012. 172 -sahifa.

⁷ I.A.Karimov. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O’zbekiston” 2012. 172 -sahifa.

⁸ I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” T.O’zbekiston. 1996. 58-sahifa.

⁹ I.A.Karimov. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida” T. O’zbekiston. 1998. 167- sahifa.

¹⁰ I.A.Karimov. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida” T. O’zbekiston. 1998. 167- sahifa.

Yana bir holat borki, mustaqillikka intilayotgan Respublikamizdagi siyosiy ahvolini izdan chiqarish uchun Farg'ona, Bo'ka, Parkentdagi qonli fojealarni uyushtirilishidir. Endigina rahbarlik kursisiga o'tirgan Prezidentimiz bu borada kuyib, yonib asl haqiqatni katta dard bilan, jasorat bilan bayon qildi, fojea oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqdi va izchil amalga oshirdi.

Prezidentimiz "O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmillik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb sahovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib qoldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan."¹¹ deb katta anjuman va matbuot chiqishlarida ta'kidlab o'tganlar. Xulosa qilib aytganda, Respublikamizdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning yomonlashuvi oxir-oqibatda xalqimizning noroziligiga sabab bo'la boshladi. Ko'plab yozuvchi va olimlarimiz xalqimizni "uyg'otish" uchun o'z asrlarini yozdi. Endilikda mustaqillikka intilish, alohida davlat bo'lib chiqish uchun ochiqdan-ochiq harakatlar boshlanib ketdi. Prezidentimiz boshchilidagi bunday ijtimoiy-siyosiy ahvolning oldi olinishiga harakat qilindi. Birgina misol Farg'onadagi qonli voqealardir. Bunda Prezidentimizning shaxsan o'zlari borib, xalq bilan dardlashib bu harakatlarning oldini oldi. Prezidentimiz rahnamoligida va shaxsan u kishining sa'yi-harakatlari bilan Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi.

¹¹ I.A.Karimov. "O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida" T.O'zbekiston. 2012. 9-10-sahifa.

§ 2. Respublikada mustaqillik ostonasidagi iqtisodiy ahvolning asarda yoritilishi.

“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzot borki, avlod-ajdodi kimligini nasl – nasabini, o‘zi tug‘ilgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi.”¹² O‘zlikni anglash, tarixni bilishdan boshlanadi. O‘zbekiston davlat mustaqillikka erishgandan so‘ng, respublika va uning manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o‘tkazish imkoniyati tug‘ildi. Respublikaning tashqi dunyodan bir asrdan ortiq vaqt mobaynida ajralib qolganligiga barham berildi. U xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo‘ldi. Bu esa jahon mehnat taqsimotida munosib o‘rinni egallashga sharoit yaratdi. “Avvalambor, yakkahokimlik tizimining illatlarini zudlik bilan tugatish, boshqaruvning ma‘muriy buyruqbozlik uslublarini va direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatning barqaror bo‘lishini ta‘minlash zarur.”¹³

“Mamlakatda yuzaga kelgan murakkab vaziyatda hayotga tayanish, umumiy hamda balandparvoz so‘zlarga asoslanib, emas, balki konkret sharoit real imkoniyatlarga amal qilish eng muhim ishdir. Asosiysi, oyoqqa mahkam turishimiz, xalq bilan doimiy ravishda maslahatlashishimiz, uning hayotini yaxshilash uchun aniq ravshan yo‘llarini izlashimiz va topishimiz kerak”¹⁴ deb ta‘kidladi Islom Karimov. Darhaqiqat, qaysi bir davlatda iqtisod siyosatdan alohida qilingan bo‘lsa, bu albatta mazkur davlatning rivojlanishiga olib keladi.

Yaqin o‘tmishga qaytadigan bo‘lsak, sobiq SSSR da iqtisod albatta siyosat bilan chambarchas bog‘liq edi. Bunday vaziyatda davlat albatta tanzzulga yo‘l tutadi. Bunga xolis tarix guvoh. Zero, Respublikamizda bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy tamoyillaridan biri, iqtisodning siyosatdan ustunligidir. Buning tub ma‘nosi oldin iqtisod, keyin siyosat demakdir. Bu xususida Prezidentimiz Islom Karimov: “Markazda ishlab chiqilgan dasturlar va islohotlarga oid chora-tadbirlarda federative subyektlari bo‘lishi, respublikalarning manfaatlarini e‘tiborga olinmay kelindi. Buning ustiga markaz o‘zining ko‘pgina barbod bo‘lgan ishlarini respublikalarning gardaniga poklashga intilib, ularni oziq-ovqat, xalq iste‘moli mollari va moddiy boyliklar bilan o‘zini-o‘zi ta‘minlashga majbur qilardi.”¹⁵ – deb ta‘kidlagandilar.

Avvalambor, Mustaqillik Respublikaga xalqning farovonligini yaxshilashdek hayotiy muhim masalalarni hal etish, vujudga keltirilgan imkoniyatlar va resurslarini mustaqil ravishda rejalashtirish va ulardan foydalanish hamda o‘z xalqining farovonligi yo‘lida va o‘zaro foydali negizda markaz bilan o‘z munosabatlarini mustaqil o‘rnatish imkonini beradi. Bu xususda, Prezidentimiz I. Karimov “Biz uchun asosiy yo‘nalish, barcha vazifalarni hal etish kaliti – O‘zbekistonning real siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashdir”¹⁶ deb ta‘kidlagandi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz o‘ziga xos icki qonunlariga muvofiq rivojlanmog‘i kerak. Mafkuraviy aqidalarini bartaraf qilish, xo‘jalik yuritishning turli ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh bo‘lgan ijtimoiy fikrning qaror topishiga, bozor

¹² I.A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T. SHarq. 1998. 52-sahifa.

¹³ I.A. Karimov. “O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisodiyot, siyosat mafkura” T. “Sharq” 1996. 37-sahifa.

¹⁴ I.A. Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O‘zbekiston” 2011. 110-sahifa.

¹⁵ I.A. Karimov. “O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisodiyot, siyosat mafkura” T. “Sharq” 1996. 67-sahifa.

¹⁶ I.A. Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O‘zbekiston” 2011. 121-sahifa.

munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va unga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etishiga ko'maklashadi. Respublikamizdagi ulkan yer osti va yer usti boyliklari, fan-texnika yutuqlari va imkoniyatlari, qulay tabiiy iqlim sharoiti haqida fikr bildirar ekan, Prezidentimiz jumladan shunday deydi:

“30 – yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatchilik buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topa bordi. Xo'sh, bu illatlar, avvalo, nimalarda namoyon bo'ladi? Avvalo, shunday bizning respublikamiz asosan xomashyo ba'zasi, sanoat ministrarlari va idoralarining mo'may xomashyo manbai deb hisoblanardi. O'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan yetarlicha, ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo, baho berilmadi, ba'zan bu xususiyatlar pisand ham qilinmadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadallashtirish, rivojlantirishning umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSR mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi”¹⁷. Aniq iqtisodiy hisob-kitoblar siyosiy va iqtisodiy mustqillikka o'tmishning butun murakkabligi va qaltisligini hisobga olgan holda, ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti joriy qilishi bilan oson kechishi mumkin, emasligini ko'rsatmoqda. Lekin, faqat ana shu mustaqillik bugungi jamiyatimizda yo'q bo'lgan narsalarni – haqiqiy mehnat qilishga intilishni, samarali intilish, ish uchun moddiy omillarni berishga qodir. Bunda- o'tmishda ham, hozirda ham, kelajakda ham butun muammoning mohiyati yashiringan. Ko'p yillik achchiq tajriba, qanday tayoq ostida ishlaymaylik, xoh u plan, xoh davlat buyurtmasi yoki davlat yo'li bilan mahsulot yetkazib berishi bo'lsin- faqat arzimagan samara keltirishini ko'rsatib turibdi. Chunki bunday sistema insonning ijodiy tashabbusini falaj qiladi, undagi egalik hissinin yo'qotadi. Bu xususida I. Karimov “Xalqning eng yaxshi fazilatlarini namoyon bo'lishi uchun yo'l ochishi kerak- bu o'z kuchiga ishonch haqiqiy mehnatdan manfaatdorlik, o'zi uchun mas'uliyat hissi bo'lib, bu mas'uliyatni boshqa hech kimning zimmasiga yuklash mumkin emas.

10 yillar mobaynida odamlarda inqirozga yuz tutgan ana shu his-tuyg'ularni uyg'otishi siz bilan bizning vazifamizdir”¹⁸ deb ta'kidlagandilar.

Ma'lumki, I. Karimov Respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kommunistik mafkura va faqat xomashyo yetkazib berishga asoslanga bir yoqlama iqtisodiy siyosat ham bir sohada o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi. Bu davrning eng og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy manzarasiga I. Karimov shunday baho beradi: “Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan, esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jonboshiga xalq iste'moli mollari, ishlab chiqarishi o'rta Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil qiladi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlarda turibmiz. O'zbekiston aholisi, o'rta hisobda, go'sh mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi.”¹⁹

Xulosa, o'rnida shuni aytish kerakki, o'sha davr iqtisodiy, siyosiy tang ahvoldan chiqish uchun biz faqat o'z kuchimiz, o'z salohiyatimizga tayanib ish ko'rishimiz kerak, o'zimiz harakat

¹⁷ I. A. Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O'zbekiston” 2012. 157-sahifa.

¹⁸ I. A. Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O'zbekiston” 2012. 210-sahifa

¹⁹ I. A. Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O'zbekiston” 2012. 227-sahifa

qilmasak, bizga hech kim chetdan yordam bermaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirishimiz kerak, buning uchun esa albatta, ichki bozorni shakllantirishimiz va tashqi aloqalarni mustahkamlashimiz kerak.

§ 3. Asarda milliy mustaqillik g'oyalarining ilgari surilishi.

Ma'lumki, davlatimiz 70 yildan ortiq vaqt davomida sobiq SSSR tarkibida bo'lib keldi. Respublikamizda bo'ladigan har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqea-hodisalar Markaz tomonidan rejalashtirilar va amalga oshirib kelinardi. 80-yillarning oxirlariga kelib, Respublikamiz shu darajaga borib yetdiki, "SSSR " deb atalishi ulkan davlat to'g'rirog'I, SSSR imperiyasi chok-chokidan so'kilib ketdi. Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt-saodatga intilish, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu-qarori mana shunday o'zgarishlarning harakatga keltiruvchi kuchi bo'ldi. Shu o'rinda, O'zbekiston chinakkam mustaqillikka erishish maqsadini birinchilar qatorida bildirganligi o'lkamiz uchun faxr-iftixor tuyg'usi bilan qayd etib o'tish kerak. Sobiq ittifoqdagi respublikalardan birinchi bo'lib keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni yubdan o'zgartirish va yangilash yo'liga o'tib olgan ham bizning respublika bo'ldi.

"O'zbek xalqining ajralmas huquqi- o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi ro'yobga chiqarildi. 1191-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Muqaddas orzu ushaldi- O'zbekiston teng parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Bu tarixiy voqea davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi"²⁰.

Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy erkinlikka erishishi, respublikamizning mustaqilligi va ozodligi yo'lida gunohsiz jabr tortgan, ajdodlarimiz, odamlarimiz, sha'nini, nomini, or-nomusini tiklash borasida so'nggi yillarda ancha amaliy ishlar qilindi. Aholining barcha tabaqa vakillari ham bundan ruhlandi, xalqning siyosiy va ma'naviy ongi yuksaldi.

Bularning hammasi xalqimiz ne azoblar bilan o'zining butun tarixi va misli ko'rilmagan mehnati bilan erishdi. O'zbekiston Respublikasi shunday qiyin bir vaziyatda I.Karimov boshchiligida o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Endilikda davlatimiz oldida eng muhim vazifa ya'ni ushbu mustaqillikni mustahkamlash vazifasi dolzarbligicha turardi. "O'zbekiston SSR Oliy sovetining ikkinchi sesssiyasi, 1990-yil 20- iyun kuni O'zbekiston SSSR mustaqilligi to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi."²¹

Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekiston SSSR ning Davlat suvereniteti e'lon qildi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Ikkinch muhi hujjat esa bu "1991 –yil 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy soveti qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qaroridir. Mazkur qaror 17 moddadan iborat bo'lib davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda".²²

Prezidentimiz I.Karimov ulkan rahbar, dono va aqlli davlat arbobi sifatida o'sha paytdagi vaziyatni to'g'ri anglay oldi, xalq ommasining ruhiy kayfiyati, istak-xohishini ziyraklik bilan baholay oldi. Islom Karimovning quyidagi so'zlari bu borada e'tiborlidir: "Umuman men birinchi kotib etib saylanganimda, O'zbekiston xalqi ruhiy shikasta holatida edi. Demak, ishni ruhiyatini

²⁰ I.A.Karimov. "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat mafkura" T. "Sharq " 1996. 35-sahifa.

²¹ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. "O'zbekiston tarixidan materiallar " Andijon. 2004. 241-sahifa.

²² Q.Usmonov. M.Sodiqov. "O'zbekiston tarixi" T. "Sharq" 2003. 242-sahifa.

tuzatishdan boshlash kerak. Xalq- bu til ,demak, qancha yillar mobaynida o'zbek tili ,o'z yerida ikkinchi toifadagi, iste'mol uchun majburiy hisoblangan til bo'lib keldi,necha yillar davomida o'zbek rusning yonida o'zining tengsizligini , “katta og'aga” qaramligini his etib keldi. Nima uchun bunga chidash kerak?

Biz davlat tili to'g'risidagi qonunni qabul qildik,bu esa ko'z o'ngimizda o'zbeklarning milliy o'z-o'zini anglashani yaxshiladi.”²³ O'zbekiston SSR kengashi tomonidan 1989-yil 21-oktabrda “O'zbekiston SSR davlat tili haqida”gi qonunnni qabul qilinishi va o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilish Islom Karimov boshchiligida mamlakatdagi barcha vatanparvar va demokratik kuchlarning orziqib kutgan tarixiy g'alabasi edi. Mzkur qonun loyihasini ishlab chiqish, uning har bir moddasini milliy talab va ehtiyoj darajasiga yetkazishda Islom Karimov bevosita ishtirok etdi va juda ko'plab o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritdi .

“Davlat tili to'g'risida”gi loyihasini ishlab chiqarishda maxsus tuzilga ishchi guruh a'zolari : B.Nazarov ,I.Qo'chqortoyev, A.Rustamov, A.Aliyev, O.Yoqubov, Said AHMAD, Jamol Kamol, Erkin Vohidov ,S.Safoyev va boshqalar faol qatnashdilar. Mazkur qonun loyihasi haqiqatdan ham umumxalq muhokamasi tusini oldi va xalq ommasi milliy onggi va faollik darajasi o'sganligini ko'rsatdi. “Muhokama davomida mehnatkashlardan 130 mingdan ortiq kishi imzo qo'ygan 4 mingdan ortiq xat-takliflar tushdi.Ularda Qonun loyihasining 37- moddasi bo'yicha, 225 ming taklif, qo'shimcha mulohazalar bayon qilingan edi.”²⁴

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston SSR Oliy sovetining 11-sessiyasida so'zlagan nutqida til haqida quyidagicha “ o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan keljagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan ,uning dilini bilmaydi “²⁵ deb ta'kidlab o'tganlar. Prezidentimiz uzoqni ko'ra bilib , siyosat yuritishni shu narsada aniq ko'rishimiz mumkinki , mazkur yilda ingliz tilini o'qitish borasida ham shaxsan Prezidentimiz boshchiligida va rahnamoligida qaror qabul qilindi. O'zbekiston SSR Oliy sovetining 2 – sessiyasida Prezidentimiz “ umuman , o'rtoqlar, agar rus millatiga mansub kishi o'zbek tilini ,o'zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga, hozirgi yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar ,nur ustiga a'lo nur bo'lmasmidi?”²⁶ deb ta'kidlab o'tgandilar.

Demak, 23-24 yil ilgari olg'a surilgan bu siyosat, g'oya mana shu bugungi 2013-yilga kelib xorijiy ingliz tilini o'rganish davlat siysati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatdi. 1989-yilgi sessiyada taklif qilingan bu fikr zamirida balki shu omillar yotgandir. O'ylab ko'radigan bo'lsak, bu izchil siyosat bir -birinini to'ldirib bormoqda. Mustamlakachilik davrida milliy qadriyatlarimiz, urf- odatlarimiz oyoqosti qilindi.ko'plab masjidlar,madraslar,eski maktablar ,tarixiy yodgorliklar buzildi va qarovsiz qoldi .Islom dini qadriyatlari,musulmonlarning e'tiqodlar oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg'in ostiga olindi.Ayniqsa, O'zbekiston hukumatining dinga va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabati keskin o'zgardi.Chunki, Islom Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek:” Musulmon madaniyatidagi xalqni ruhiy tanazzulga tushishdan chiqarish mumkin bo'lgan asosiy yo'nalish din erkinligini ,islom bilan chambarchas bog'liq milliy urf-odatlariga rioya qilish erkinligini yaratib berishdan iborat edi. Biz uzoq va orziqib kutgan ana shu erkinlikni so'zda emas amalda ta'minladik”²⁷.

²³ N.Jo'rayev. SH .Karimov “O'zbekiston tarixi” ikkinch ikitob .T. “sharq” 2011. 690-sahifa.

²⁴ N.Jo'rayev. SH .Karimov “O'zbekiston tarixi” ikkinch ikitob .T. “sharq” 2011. 691-sahifa

²⁵ I.A.Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O'zbekiston “ 2012.

²⁶ I.A.Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O'zbekiston “ 2012. 68-70-71—sahifalar.

^{27 27} N.Jo'rayev. SH .Karimov “O'zbekiston tarixi” ikkinch ikitob .T. “sharq” 2011. 697-sahifa.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. O'sha kuni Respublika Oliy sovetida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun aktida mana bundy deyilga edi: "O'zbekiston Respublikasing hududi uning tarkibiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi bilan birgalikda bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volar qilmagani holda o'z hududi va uning tabiiy boyliklar xususida oily huquqqa egadir. O'zbekiston Respublikasi barcha sheriklar bilan hech qanday dastlabki shartlarsiz teng huquqli va o'zaro manfaatli bitim va shartnomalarni bevosita imzolash uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi." ²⁸

Xulosa qilib aytganda, millatimiz boshiga tushgan fojiali kunlarda, erk va ozodlik yo'lida shahid bo'lgan millionlab vatandoshlarimiz qismatidan, xalq taqdiri bilan o'ynashgan, uni manqurtga aylantirib, o'zgalar qo'liga qaratishga uringan kimsalarning kirdikorlaridan xabardormiz. Endilikda O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab, ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush qilish yo'lidan bormoqda.

²⁸ Rajabov R., Karimov R.H., Oqilov K.O. VA BOSHQALAR "O'zbekiston tarixi" (1917-1993- yillar) T. O'qituvchi. 1994.153-sahifa.

§ 4. Asarning mustaqillikka erishish ostonasida Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganinshdagi ahamiyati.

XX asrning va undan oldin o'tgan barcha asrlardan o'zinig odimi, voqealar rivojining shiddat bilan farq qiladi. Yani bu asrda kishilik jamiyatini qayta qurishning shunchalar ko'p, turli-tuman va ziddiyatli, g'oyalari paydo bo'ldiki, ularni amalga oshirish uchun qilingan harakatlar ayrim xalqlarni taraqqaiyotning yuqori cho'qqisiga, ozod va obod vatanni bunyod etishga, erkin va farovon hayotni olib kelgan bo'lsa, ba'zi xalqlar taqdirida ma'lum rol o'ydadi. Ular taraqqiyotini ortga surib tashladi. Tarixda shunday vaqtlar, tub burilish pallalari bo'ladiki, shu davrga kelib tarix sahnasiga ma'lum bir shaxslar chiqadi, ular o'z xalqini ortidan ergashtirib, o'z erki, mustaqilligi, hurriyati uchun kurash olib boradi. XX asrning 80-90- yillarga kalib, xalqimiz oldida ham shunday muhim o'zgarishlar bo'ldiki, bu mustaqillikka intilishdir. Prezidentimiz: "SHuni ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilishi kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kengash haqida yaxlit, yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlil- tadqiqot hozirgacha amalda yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi".²⁹

Mustaqillik davrining xalq, millat, va mamlakat taqdiridagi buyuk voqelik, noyoob qadriyat ekanligi haqidagi fikrlarini davom ettirib, Prezidentimiz I. Karimov "O'zbekiston man shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirganini, bu harakatlarning ilmiy-tarixiy mantiqiy va qomusiy olimlari, kerk bo'lsa, istiqloq o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani bularning barchasi haqida har taraflama chuqur yoritib, isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganin nqayd etishimiz zarur".³⁰

Statistikaning ko'rsatishicha: "Hozir O'zbekistonda aholi jonboshiga hisoblaganda, daromad 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashab turibdi, bu esa aholining 45 foizini tashkil etadi.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra kun kechirish uchun kamida hozirgi kunda 85 so'mdan zarurligini hisobga oladigan bo'lsak, ana shunda odamlar qanday qiyinchilik bilan, uchma-uch yashab kelayotganiga o'zimiz baho berishimiz mumkin".³¹

Qishloqda esa ahvol o'z-o'zidan ma'lumki past darajada edi. Shuni e'tirof etish kerki, ko'riladigan barcha masala, barcha choralarga qaramy aholini uy-joy, sog'liqni saqlay olish, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va boshqalar bilan ta'minlashda baribir sezilarli siljinishlarga erishilmadi. "Biz bu raqamlarni necha martalab aytganmiz, ammo bularni bugun yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi. Aholi jonboshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past".³² Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kundan-kunga og'irlashib bordi. Endilikda bu

²⁹ I.A. Karimov. "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida" T. O'zbekiston. 2008. 4-sahifa.

³⁰ I.A. Karimov. "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida" T. O'zbekiston. 2008. 5-sahifa.

³¹ I.A. Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T. "O'zbekiston" 2012. 48-49—sahifalar

³² I.A. Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T. "O'zbekiston" 2012. 167—sahifa

vaziyatdan chiqish yo'llarini ishlab chiqish muammosi ko'ndalang bo'ldi. "I.A.Karimov boshchiligidagi siyosiy rahbariyat respublikada orqada qolayotgan, yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan chiqish choralarini Markazdan so'ramagan holda mustaqil ravishda belgilash yo'lidan bordi. Shunga ko'ra respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga o'tkazishning o'ziga yo'lini mustaqil tarzda belgilay boshladi".³³ Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida so'zlagan ma'ruzasida bir savolni o'rta tashladi.

"Shu qadar katta imkoniyatlarga, qulay tabiiy iqlim sharoitlariga ega bo'lgan Respublikamiz asosiy ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga haqli ravishda teng holat deb ahvolga tushib qolganining sababi nimada edi?

Nazarimda, buning javobi shunday bo'lmog'i kerak: 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatchilik, buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonda, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topa bordi."³⁴

Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning umum Ittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSR ning mavqe'i va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning juda past darajaga tushib ketishiga, Respublikamizda o'rnatilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi, iqtisodimizning faqat bir tomonlama rivojlanganligidir. Ma'lumki, Respublikamizda paxta maydonlarining ijtimoiy sohada ham muammolarni keltirib chiqardi. Sobiq Ittifoqdosh respublikalar ishlab chiqarishda ixtisoslashtirilgan edi. Shuning uchun bir xil mahsulotlar chetdan olib kelinar, ba'zi birlamchi mahsulotlar taqchilligi kuzatildi. Ijtimoiy sohada ham aholini yetarli darajada himoya qilinmadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin bu sohalarda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi, islohotlar o'tkazildi.

³³ "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida". T.Sharq. 2000. 668-sahifa.

³⁴ I.A.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T. "O'zbekiston " 2012. 168—sahifalar

XULOSA.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin tarixni xolisona o'rganish keng yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishish arafasidagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy hayot qay ahvolda ekanligini o'rgandik.

1989-1991-yillardagi taranglashib, portlab ketishga kelib qolgan vaziyatdan Respublikamiz, xalqimiz qanday chiqib ketganligi, bunda Prezidentimiz Islom Karimovning shaxsiy tashabbusini o'rgandik. Mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy sohadagi qilingan amaliy ishlar iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlar ayniqsa diqqatga sazovordir. 1989-1991-yillar Respublikamiz hayotida tub burilish yasagan davr bo'ldi. Bu davrda davlatchiligimiz qurilishida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbek davlatchiligi qurilishida yalpi yangi pallaga kirdi. Endilikda O'zbekiston dunyoga tenglar ichida teng davlat sifatida tanila boshladi. Lekin, yana bir muhim narsa borki bu ham bo'lsa xalqimizning, yoshlarimizning bu mustaqillik o'z-o'zidan kelib qolmaganligi, uning uchun qanchadan-qancha ishlar qilinganligi keng jamoatchilikka yetkazish biz tarxchilar uchun eng muhim vazifadir. Va bu vazifani keng amalga oshirishda Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asari katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.

1.Prezident asarlari:

- 1.1. I.A.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T. "O'zbekiston " 2012.
- 1.2. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T."Ma'naviyat" 2008.
- 1.3. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T. "O'zbekiston" 1998.
- 1.4. I.A.Karimov ."Istiqlol va ma'naviyat" .T. "O'zbekiston" .1994.
- 1.5. I.A.Karimov. "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat mafkura" T. "Sharq " 1996.
- 1.6. I.A.Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T."Sharq". 1998.
- 1.7. I.A.Karimov "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". T."O'zbekiston" 1996.
- 1.8. I.A.Karimov "Xalq xotirasi oldida bosh egamiz". T." Sharq" 2011.
- 1.9. I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod vatn qolsin" T."O'zbekiston"
- 1.10. I.A.Karimov "Bunyodkorlik yo'lidan" T."O'zbekiston" 1996.
- 1.11. I.A.Karimov. "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" T. O'zbekiston. 1998.
- 1.12. I.A.Karimov. "Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida" T.O'zbekiston. 2008.

2. Huquqiy- meyoriy hujjatlar:

2.13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2.14. O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida so'zlagan ma'ruzasi.1990.

3. Mavzu yuzasidan qo'shimcha materillar.

3.15. "Tarix shohidligi va saboqlari" T.Sharq " 2001.

3.16. Hamid Ziyoyev "Tarix- o'tmish va kelajak ko'zgusi" T. "G'ulom" 2000.

3.17. N.Jo'rayev. SH .Karimov "O'zbekiston tarixi" ikkinch ikitob .T. "Sharq" 2011.

3.18. R.Shamsutdinov,Sh.Karimov. "O'zbekiston tarixidan materiallar " Andijon. 2004.

3.19. R.Shamsutdinov,Sh.Karimov. "O'zbekiston tarixidan materiallar " Andijon. 2004.

3.20. Rajabov R,Karimov R.H., Oqilov K.O. VA BOSHQALAR "O'zbekiston tarixi" (1917-1993- yillar) T. O'qituvchi. 1994.

3.21. "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida". T.Sharq. 2000.



